

## **INSON FAN VA TEXNIKA KONVERGENSIYASINING HOZIRGI KUNDA IJTIMOIY HAYOTGA TA'SIRI**

***Xaytboyev Boburjon Xamzayevich***

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti*

*Ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrasи Falsafa o'qituvchisi*

*bobur423bobur@gmail.com*

**ANNOTATSIYA** Ushbu maqolada inson kapitalini sifat jihatdan rivojlantirish hisobiga innovatsion rivojlanish darajasini yuqori darajaga ko'tarish mumkin ekanligi va o'z navbatida innovatsion rivojlanish darjasini yuqori bo'lgan hududlarda mamlakat YaIMdagi ulushining yuqoriligini ta'minlash, inson kapitalining iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi rolini oshirishga erishish mumkin ekanligi yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** *inson kapitali, innovatsion rivojlanish, iqtisodiy o'sish, qashshoqlik, fan-texnika tarraqiyoti*

### **KIRISH**

Iqtisodiy o'sish mamlakatning umumiy boyligini ko'paytirishga, davlatning qashshoqlik, ochlik, boshqa ijtimoiy muammolarni hal etish bo'yicha imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilidi. Shu boisdan iqtisodiy o'sishning yuqori darajasi jahondagi ko'plab davlatlarda iqtisodiy siyosatning eng asosiy ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Hozirgi vaqtida jahonning yetakchi mamlakatlari taraqqiyoti uchun sanoat rivojlanishidan keyingi bosqich xos bo'lib, bu bosqichda iqtisodiy o'sish omillarining roli va o'rni o'zgarmoqda. An'anaviy hisoblabgan uch: mehnat, yer va kapital omillariga fan-texnika tarraqiyoti omili ham qo'shildi, eng muhim resurslarga esa axborot va bilimlar aylandi.

Axborot va bilimlar bevosita innovatsion iqtisodiyotni shakllantirib inson va uning rivojlanayotgan salohiyati asosiy rolni egalladi. Jahonda shiddat bilan rivojlanayotgan raqamli texnologiyalar mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy faoliyati, iqtisodiy siyosati va

davlat boshqaruvi tuzilishini sifat hamda texnologik jihatdan tubdan o‘zgarishiga olib kelib, xalqaro integratsiyasini faollashtirishda ham alohida o‘rin egallamoqda. Chunonchi, raqamli texnologiyalarning kirib borishi va ularni iqtisodiy va ijtimoiy hayotda keng qo‘llash sur’atlarining xilma-xilligi natijasida mamlakatlar o‘rtasidagi rivojlanish farqlarining yanada kuchayishiga sabab bo‘lmoqda. Mamlakat iqtisodiyoti va xo‘jalik yurituvchi subyektlarning tadbirkorlik faoliyatiga ta’sir ko‘rsatishning asosiy vositalaridan biri bu davlat iqtisodiy siyosatining bo‘g‘inlaridan hisoblangan innovatsiyalar siyosati. Davlat innovatsion siyosati yordamida u ishlab chiqarish hajmining o‘sishiga, fan va texnika rivojlanishining tezlashishiga, ijtimoiy ishlab chiqarish tarkibining o‘zgarishiga, ijtimoiy muammolarni hal qilishga bevosita ta’sir ko‘rsatishi mumkin. O‘zbekistonda ham iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida innovatsiyalar, avvalo uning barqaror o‘sishi uchun zarurdir. Yangi texnologiyalarga investitsiyalar raqobatbardosh, yuqori talab bilan iste’mol etiladigan tovarlar ishlab chiqarishga yordam beradi. O‘zbekistonda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida innovatsiyalar, birinchi navbatda, uning barqaror o‘sishi uchun zarurdir. Shu bois O‘zbekiston Respublikasida innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish va yanada rivojlantirish maqsadida bir qancha asosiy ishlar va tadbirlar o‘tkazilmoqda:

- rivojlangan mamlakatlardan kerakli bo‘lgan barcha texnologik bilim va yangiliklarni o‘rganish, keyin esa respublika iqtisodiyoti tarmoqlariga bosqichmabosqich milliy manfaatlarimizdan kelib chiqqan holda tatbiq qilish;

- ichki innovatsion loyihalardan asosiy ahamiyatga egalariga investorlarni va xorijiydan kapitalni jalb qilish. Yetakchi xorijiy institutlardan va kompaniyalaridan biri bo‘lgan Buyuk Britaniyadagi Oxford Insights konsalting kompaniyasi hamda Kanada davlatining Xalqaro tadqiqotlarni rivojlantirish instituti hukumatlarning sun’iy intellektga tayyorlik indeksi bo‘yicha 2022 yilgi natijalarni ko‘radigan bo‘lsak; O‘zbekiston 44,51 ball bilan 181 ta mamlakatlar o‘rtasida 79-o‘rinni qo‘lga kirishgan, 2021 yilga nisbatan esa 14 pog‘ona yuqorilagan. Shu bilan birgalikda, rivojlangan davlatlarda inson kapitaliga investitsiyalar kiritish mikro va makro darajada raqobatbardoshlikni oshirish va iqtisodiy

o'sishni ta'minlashning muhim omili sifatida ko'riladi. Inson kapitali sifatini yaxshilash, butun hayot faoliyati davomida uzlusiz ta'lim asosida insonlarning kasbiy ko'nikma va tajribalarini takomillashtirib borishga qaratilgan strategiyani izchillik asosida amalga oshirishga qaratilgan faoliyati iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashning muhim sharti bo'lib hisoblanadi. Jalon banki dunyoning 141 ta davlat misolida global milliy boylik tarkibini tadqiq etish davomida inson kapitalining uning umumiyligi qiyamatidagi ulushi 64 % ni tashkil etishi va so'nggi 20 yil davomida uning hajmi 55% ga o'sgani ma'lum bo'lgan. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT)ga a'zo bo'lgan yuqori daromadli mamlakatlarda inson kapitalining milliy boylikdagi ulushi 70 % ni tashkil etgan bo'lsa, quyi daromadli mamlakatlarda uning hissasi 41%ga to'g'ri keldi. Bugungi kunda inson kapitalining mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash jarayonlariga ta'sirini o'rghanishga qiziqish kundan-kunga ortib borayotganini kuzatishimiz mumkin. Xususan, BMT, Jalon banki, XVF kabi yirik xalqaro tashkilotlar va muassasalar tomonidan ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borildi va olib borildi. Ammo inson kapitali toifasini aniqlashda uning iqtisodiy o'sishga ta'sirini baholashda ma'lum noaniqliklar saqlanib qolmoqda, shu bilan birga uning asoschilarini hali to'liq aniqlanmagan, inson kapitalining milliy iqtisodiyotning iqtisodiy o'sishiga va uning innovatsion rivojlanishiga ta'siri miqdoriy jihatdan baholanmagan. Yangicha iqtisodiy munosabatlarning tarkib topishi sharoitida milliy iqtisodiyotda iqtisodiy o'sishni ta'minlashda inson kapitalidan foydalanish va uning sifatini ta'minlash uslubiyoti borasida ko'plab ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda, jumladan, 2022-yilning may oyida Jalon banki ikkinchi marta O'zbekiston uchun mamlakatning tizimli diagnostik tadqiqotlarini e'lon qildi. Unda hukumat uchun xususiy sektor o'sishi borasidagi to'siqlarni olib tashlash, davlatning 341 iqtisodiyotdagisi ishtiroyini cheklash, inson kapitalini rivojlantirish va mamlakatni yashil iqtisodiyotga o'tish bo'yicha tavsiyalar o'z aksini topgan. Mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy kompleks rivojlantirish konsepsiyasining asosiy maqsadi - 2030 yilgacha yuqori darajali inson kapitali shu bilan birgalikda innovatsiyalarga asoslangan real sektorning takomillashishi va natija olishga

qaratilgan investitsiya siyosatini yuritilishi orqali ijtimoiy siyosatga yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti shakllantirilishi, respublikani Jahon banki klassifikatori bo‘yicha o‘rtadan yuqori daromadli mamlakatlar guruhiga kirishini ta’minlaydi. Kontseptsiyada belgilangan ustuvor yo‘nalishlarning o‘z vaqtida amalga oshirilishi mamlakatni 2030 yilda aholi jon boshiga YaIMni ikki baravar oshirishga, mehnat bozorida barqaror yuqori daromadli ish o‘rinlarini yaratishga va aholining kam daromadli qatlaminini ikki baravar kamaytirishga olib keladi.

### **Xulosa**

Xulosa qilib aytganda, inson kapitalining sifatli rivojlanishi tufayli innovatsion rivojlanish darajasini yuqori darajaga ko‘tarish mumkin. Innovatsion rivojlanish darjasini yuqori bo‘lgan hududlarda, o‘z navbatida, mamlakat YaIMning yuqori ulushini ta’minlash, iqtisodiy o‘sishni ta‘minlashda inson kapitalining rolini oshirish mumkin bo‘ladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. World Bank Group. Human Capital: A Project for the World, 2018. October, Development Committee Meeting <https://www.devcommittee.org>

2. Усманов А., Холбаева С. МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ФОНДА ЖИЗНЕННЫХ СРЕДСТВ РАБОТНИКА // Экономика и образование. – 2022. – Т. 23. – №. Maxsus\_son. – С. 25-34

3. Холбаева Сабина Рустамовна ВЛИЯНИЕ ПОТЕРЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА НА ЭКОНОМИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ СТРАНЫ // Вестник Прикамского социального института. 2021. №1 (88). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/vliyanie-poter-chelovecheskogo-kapitala-naekonomiceskoe-razvitiestrany> (дата обращения: 03.05.2023).